



## MODERNIZATSIYA JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

*Ahadov A.M.*

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti  
“Texnologik jarayonlarni boshqarishning axborot- kommunikatsiya  
tizimlari” kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi*

**Tayanch so‘zlar:** bo‘lajak o‘qituvchi, axborot xavfsizligi, modernizatsiya, zamonaviy kontseptsiya, fan, texnika, zamonaviy ommaviy kommunikatsiya, internet global tarmog‘i, ma‘naviy, milliy, huquqiy, texnik, fizik, yoshlar, ta‘lim, tarbiya, ma‘naviyat, g‘oyaviy-siyosiy madaniyat.

**Ключевые слова:** будущий учитель, информационная безопасность, модернизация, современная концепция, наука, технологии, современные массовые коммуникации, глобальная сеть интернет, духовная, национальная, правовая, техническая, физика, молодежь, образование, духовность, идеологическая и политическая культура.

**Key words:** future teacher, information security, modernization, modern concept, science, technology, modern mass communications, global Internet, spiritual, national, legal, technical, physics, youth, education, spirituality, ideological and political culture.

**Резюме:** Mazkur maqolada modernizatsiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot xavfsizligini ta‘minlash ko‘nikmalarini takomillashtirish omillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek maqolada talaba yoshlarda axborot xavfsizligini ta‘minlash jarayoni muayyan ketmaketlikda amalga oshirish masalalari yuzasidan atroflicha fikr yuritilgan.

**Резюме:** В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются факторы совершенствования навыков обеспечения информационной безопасности будущих учителей в процессе модернизации. Также в статье подробно рассмотрены вопросы обеспечения информационной безопасности обучающихся в определенной последовательности

**Summary:** This article analyzes the factors for improving the information security skills of future teachers in the process of modernization from a scientific and theoretical point of view. The article also discusses in detail the issues of ensuring information security for students in a certain sequence.

Planetamiz tsivilizatsiyasining axborot maydonida, talaba yoshlar o‘zining kundalik faoliyatida uzluksiz ravishda axborotlardan foydalanadi. Uzluksiz va zamonaviy talqinda ortib borayotgan axborotlar hajmi talabalarning intellektual salohiyatini oshishiga xizmat qiladi.



Axborot jamiyatiga o'tish sharoitida ta'limga asoslangan noan'anaviy ta'lim modeli asosida Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy buyurtmaga ko'ra kadrlarni tayyorlash muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi ijtimoiy jarayonda har bir yangi avlod umuman o'zgacha bilimlarni talab qiluvchi yangi sharoitlarga kamol topmoqda. Bir so'z bilan aytganda, modernizatsiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda axborot xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Xo'sh tabiiy savol tug'iladi. Axborot xavfsizligi nima? Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi nimalardan iborat? Oliy ta'lim tizimida talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarini takomillashtirish vazifalari nimalardan iborat.

Lug'atlarda axborot xavfsizligi (inglizcha: Information Security, shuningdek, inglizcha: InfoSec) - axborotni ruxsatsiz, kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish, tadqiq qilish, yozib olish yoki yo'q qilishning oldini olish amaliyotidir. Ushbu universal kontseptsiya ma'lumotlar qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar (masalan, elektron yoki, jismoniy) amal qiladi. [11] Axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi ma'lumotlarning konfidensialligi, yaxlitligi va mavjudligini muvozanatli, [10] qo'llashning maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda va tashkilot faoliyatiga hech qanday zarar yetkazmasdan himoya qilishdir. [11] Bunga, birinchi navbatda, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, tahdid manbalari, zaifliklar, potensial ta'sirlar va mavjud xavflarni boshqarish imkoniyatlarini aniqlaydigan ko'p bosqichli xavflarni boshqarish jarayoni orqali erishiladi. Bu jarayon xavflarni boshqarish rejasining samaradorligini baholash bilan birga olib boriladi. [10]

Axborot xavfsizligi-ko'p qirrali faoliyat sohasi bo'lib unga faqat tizimli, kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin.

Axborot xavfsizligining zamonaviy kontseptsiyasi axborot xavfsizligini ta'minlovchi maqsadlar, vazifalar, tamoyillar va asosiy yo'nalishlar bo'yicha rasmiy nuqtai nazarlar majmuini bildiradi. [6]

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarda axborot xavfsizlik ko'nikmalarini takomillashtirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Chunki, globallashuvning tobora avj olishi milliy ma'naviyatga qarshi tahdidlarning kuchayishini tezlashtirmoqda, ularning o'ziga xos xususiyatlarining zaiflashuviga va yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar hamjihatlikda shakllantirayotgan "ommaviy madaniyatga" singib ketish xavfini yuzaga keltirmoqda [8]

Biz bilamizki millat, insonlarning qoni va joni bilan yaratilgan oliy qadriyatlardan biri bo'lib, uning ma'nan mag'lub bo'lishi tabiiy ravishda butun

insoniyatning jismoniy va madaniy jihatdan mag'lub bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun millatni asrash uchun uning asosiy kuchi "yoshlar"ni, yoshlar ma'naviyatini asrash hozirgi kunning milliy manfaatlariga molik masalaga aylanmoqda.

Fan va texnikaning rivoji, zamonaviy ommaviy kommunikatsiyalar, internet global tarmog'ining yashin tezligida ayrim yoshlarimiz ongi va shuurini qamrab olganligi va barcha mazmundagi mavzularning mavjudligi, ma'naviy va milliy madaniyatimiz ...(salbiy va ijobiy jihatlari .....) yoshlar tarbiyasiga ta'sir etmasdan qolmayapti.[6]

Bir tomondan globallashuv insoniyat taraqqiyoti bugungi bosqichining mahsuli, uning o'zi faqat insonning aql - zakovati, iste'dodi va tinmay qilgan mehnati evaziga fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, zamonaviy kommunikatsiya yutuqlari ta'sirida moddiy kuchga real voqelikka aylandi va jarayon sifatida rivojlanmoqda.

Ikkinchi tomondan esa yoshlarning "ommaviy madaniyat" va "ommaviy ma'naviyat" tushunchalarini o'zlaricha talqin etib milliy ma'naviyatimiz tahlika ostiga qolayotganini anglamayotganliklari talaba yoshlarni etarli darajada axborot bilan ishlay olish ko'nikmalarining sayozligini bildiradi. [7]

Hech kimga sir emas, internet globall tarmog'idagi "ayrim"ma'lumotlardan yoshlarimiz tushinib tushunmay foydalanib tengdoshlari, yaqinlari yoinki telegramm guruhidagilarga "tarqatib", tegishli "jazo" olayotganlari, shu ma'noda ularda g'oyaviy madaniyatni shakllantirish, axborot xavfsizligi madaniyatini takomillashtirish lozimligini ko'rsatmoqda. Chunki yoshlar ongida g'oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish jarayoniga innovatsion yondashuv, axborot xavfsizlikni ta'minlashning asosiy zanjirini, negizini tashkil qiladi. Chunki g'oyaviy-siyosiy madaniyat, g'oyaviy ong, dunyoqarash, ruhiyat, qalb va axloq, tafakkur teranligini kabi mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Yoshlardagi o'zgarishlar tabiiy ravishda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, mamlakatdagi barqarorlikda sodir bo'ladigan o'zgarishlarda ham o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda yoshlar ongida axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish ularga vatanparvarlik, ona Vatanimiz chegara daxlsizligini asrash, xalqparvarlik, o'z xalqi, Vatani manfaatlari yo'lida fidoyilik, uning barqarorligi, nufuzini asrashga ma'sullik, g'urur iftixor, yovuz g'oyalar tajovuzidan himoya qilish mamlakatimizda g'oyaviy-siyosiy yuksaklikni ta'minlash zarurligini anglab etishdek muhim vazifalarni hal qilish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda axborot xavfsizlik ko'nikmalarini takomillashtirish axborotni ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish, tadqiq qilish, yozib olish yoki yo'q qilishning oldini olish amaliyotidir.



Shunga ko'ra talabalarda axborot xavfsizlik ko'nikmalarini takomillashtirish jarayonini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin. Ichki omillarga-axborotlarni paydo bo'lishi, ma'lumotlarni o'rganish bilan bog'liq bo'lib, tashqi omillarga axborotni ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish kabilar kiradi.

Hozirda insoniyat o'zining aql-zakovati bilan yaratgan yangi tsivilizatsiya sharoitida yashamoqda. Uning hayot ritmi mislsiz darajada rivojlanmoqda. Bugun radio, televidenie, uyali telefon va Internet kabi vositalar bilan dunyoning eng kichik nuqtalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlardan yoshlarimizning zudlik bilan xabar topishi, ayni vaqtda ana shu vositalar yoshlarni axloqsizlik botqog'iga etaklovchi hayosizlik, shafqatsizlik, bag'ritoshlik, va zo'ravonlikning ashaddiy ko'rinishlari bilan "oshno" bo'lishga ham xizmat qilayotgani hech kimga sir emas.

Ularning barchasi insoniyat taraqqiyotining so'nggi 20 yili ichida nihoyatda tez rivojlandi. Hozirda uyali aloqa telefondan foydalanish yoshlarning oddiy hayot kechirish vositasiga aylanganligini ko'rishimiz mumkin. Internet bugun nafaqat shaharda, balki uzoq chekka qishloqlargacha kirib bordi. Ular yordamida har bir inson o'ziga kerakli ma'lumotni dunyoning qaysi joyida bo'lmasin bilib olishi va foydalanishi mumkin. YAngi texnologiyalar insoniyatning nafaqat dunyoqarashini va uning ko'pgina qadriyatlarini ham o'zgartirib yubordi. Bugungi kunga kelib globallashtirishning avj olishi g'oya va mafkuralarning inson, millat, xalq, davlat va xalqaro hayotdagi o'rnini keskin tarzda o'zgartirib yubordi. [6]

Bizning vazifamiz talaba yoshlarni globallashtirish jamiyatdagi g'oyalarning ta'siri va ahamiyatini teran anglab etishga o'rgatish, jamiyatimizning barcha qatlamlarida bizga mutlaqo begona bo'lgan zaharli intilishlarga, huruj va harakatlarga qarshi yoshlar o'z fikrini aytishga, erkin fikrlashga o'rganishdan iborat. Ya'ni yoshlarimiz o'z fikrini, ta'bir joiz bo'lsa o'z g'oyasini erkin, dadil ayta bilishi turli ma'lumotlarni analiz va sintez qila olishini ta'minlashi shubhasiz.

Fikrimizcha bo'lajak o'qituvchilarda axborot xavfsizlik ko'nikmalarini takomillashtirish jarayonining pedagogik maqsadlari o'z ichiga mustaqil fikrlashni; kommunikativ qobiliyatni; optimal qaror qabul qilish malakasini; axborot madaniyatining rivojlanishini ta'minlaydi.

Alohida e'tirof etish lozimki, talaba yoshlarda axborotni himoya qila olish choralari ya'ni huquqiy, ma'naviy-etik, texnologik, tashkiliy, fizik, texnik (qurilmaviy va dasturiy) takomillashtirish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.



*Bo'lajak o'qituvchilarda axborot xavfsizlik ko'nikmalarini takomillashtirish jarayonini rejalashtirish texnologiyasi*

Ayniqsa, axborotni huquqiy himoyalash bo'yicha sub'ektlarning munosabatlarini tartibga soluvchi, amalga joriy etuvchi hamda ularning bajarilishini nazorat qiluvchi qonunchilik va normativ-huquqiy xujjatlar asosida himoalanadigan tartib-qoidalarni bilishlari, tashkiliy xarakterga ega bo'lgan axborot tizimi faoliyatini, foydalanuvchilarning tizim bilan o'zaro aloqalarini shakllantirishga mo'ljallangan xavsizlik ishini takomillashtirish, talabalarning axborot tizimidan foydalanish qoidalarni tartiblash malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.[6]

Shuningdek fizik hamda texnik himoya to'g'risidagi bilimlarini mukamallashtirishda g'arazgo'y kimsalarning ruxsat etilmagan xududda jismoniy kirishiga qarshilik qiluvchi vositalar to'plami to'g'risidagi ma'lumotga



ega bo'lishlari, axborot tizimlarida ma'lumotlarni texnik, dasturiy va dasturiy-texnik vositalar yordamida himoya qilishni tahlil qila olishlariga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun, oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirish yuzasidan ota onalar bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari bilan bir qatorda etnopedagogik texnologiyalar asosida tarbiyaviy faoliyatga insonparvarlik yondashuvi asosida faoliyat yuritishlari o'ta muhimdir.

Quyidagi jadvalda biz bo'lajak o'qituvchilarda axborot xavfsizlik ko'nikmalarini takomillashtirish jarayoni muayyan ketmaketlikda amalga oshirish rejalashtirilganda quyidalarga e'tibor berishi lozimligini aks ettirdik:

Xulosa qilib aytganda bo'lajak o'qituvchilarda axborot xavfsizlik ko'nikmalarini takomillashtirish, ularni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayoni murakkab ijtimoiy hodisa sifatida milliy, diniy, tarixiy, axloqiy va huquqiy omillar bilan uzviy bog'liq. SHu ma'noda, axborotni muhofaza qilish, axborot bilan ishlash, ruxsatsiz foydalanish mumkin bo'lmagan axborotlardan foydalanmaslik kabi bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajagimizning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
2. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar: 2-jild. – T.: Ma'naviyat, 2006. - 304 b.
3. M.Quronov. Milliy tarbiya. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi. Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi.- T.: “Ma'naviyat”, 2007
4. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2009. - 232 b
5. Erkaev A. Ommaviy madaniyat va ma'naviy tarbiya. – T.: Ma'naviyat, 2015. – 30 b
6. Axborot xavfsizligi asoslari: Ma'ruzalar kursa/Fizika matematika fanlari nomzodi, I.M.Karimovning umumiy tahriri ostida. T.: -O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013 -131 b.
7. Otamurodov S. “Globalashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik”(siyosiy-falsafiy tahlil). T.: “O'zbekiston” 2013 – 3 b
8. Daminov I. Bunyodkor va vayronkor g'oyalar. – T.: Ma'naviyat, 2015. – 30 b.
9. Ijtimoiy himoya atamalar izohli lug'ati. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 436 b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J-III-N-Tartibli/ -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 563 b
11. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot\\_xavfsizligi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot_xavfsizligi)